



O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA INSON TAQDIRI VA URUSH FOJIALARI TALQINI

Muhammadjonova Nozimaxon

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi asosiy g‘oya, badiiy tasvir vositalari va personajlar tizimi tahlil qilinadi. Asarda Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining ruhiy kechinmalari, mashaqqatli taqdiri va insoniylik, vijdon, sabr, matonat kabi umuminsoniy qadriyatlar yoritilgan. Roman qahramonlari, xususan Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib va Robiya obrazlari orqali yozuvchi murakkab tarixiy davrning inson hayotiga ko‘rsatgan ta’sirini teran ochib beradi. Maqolada asarning falsafiy mazmuni, kompozitsion qurilishi va adibning o‘ziga xos uslubi ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, urush fojeasi, inson taqdiri, Orif oqsoqol, ruhiy kechinma, roman tahlili, o‘zbek adabiyoti, umuminsoniy qadriyatlar.*

O‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi O‘tkir Hoshimov ijodida “Ikki eshik orasi” romanining o‘rni alohida bo‘lib, u 1985-yilda chop etilgach, keng kitobxonlar e’tiboriga tushgan. Asar Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, insonning umuminsoniy fazilatlarini va ruhiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlagani bilan ajralib turadi. Yozuvchi turli taqdirlarni bir-biriga mahorat bilan bog‘lab, mustahkam kompozitsiya va psixologik tahlil orqali o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini jonlantiradi.

Roman markazida Ikkinchi jahon urushi faqat jang maydonida emas, balki undan uzoqda yashayotgan insonlar hayotida ham qanday mashaqqatlar tug‘dirgani turadi. Yozuvchi: “Urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o‘tkazdi,” - deya inson ruhiyatidagi iztiroblarni yoritadi. Asarda umid va umidsizlik, qo‘rquv va jasorat,



mehr va qahr kabi qarama-qarshi tuyg'ular qahramonlarning hayoti orqali mahorat bilan ochib beriladi. Roman qahramonlari orasida eng yorqin obrazlardan biri — Orif oqsoqol. U donishmandligi, insonparvarligi, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsata olishi bilan alohida ajralib turadi. Oqsoqolning hayotga teran qarashi, halollik va iymonga sodiqligi romanning ma'naviy poydevorini tashkil etadi. Husan Duma va Komil tabib obrazlari orqali yozuvchi oddiy xalqning mehnatkashligi, vatanparvarligi, sabr va matonatini tasvirlaydi. Ular turli vaziyatlarda o'zini namoyon qilgan, jamiyatning tayanchi bo'lgan insonlar sifatida gavdalantiriladi. Robiya obrazi ayolning urush davridagi iztiroblari, muhabbat va sadoqat yo'lida kechirgan ruhiy jarohatlari bilan muhimdir. Uning taqdiri orqali adib ayollarning urush yillaridagi og'ir yukni qanday ko'tarishga majbur bo'lganini ko'rsatadi. Robiyaning urush davridagi jarohatlari butun hayoti davomida bitmadi, faqat yangilandi. Asar o'quvchini tinchlikning qadriga yetishga, ota-onalarimiz boshidan kechirgan mashaqqatlarni anglashga, insoniylik va iymonni ulug'lashga chaqiradi. Undagi ko'plab iqtiboslar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'tkir Xoshimovning fikricha, "Rosti bilan yolg'onning o'rtasi to'rt enlik" bu hammaga qiziq tuyuladi, nega endi? Ko'p emas, to'rt enlik? Bu so'zning asosiy mohiyati shunchaki ko'z bilan quloqning orasi to'rt enlik. Inson eshitganiga emas, ko'rganiga ishonishi kerak. Nega aynan bu so'zlarni aytgan, asarda shunday vaziyatlar bo'ladiki, odamlardan eshitgan gap so'zlarni deb insonlar taqdiri o'yinchoq bo'ladi. Shunga o'xshash bir ancha iqtiboslarni keltirib o'tamiz:

Ajab, inson xotirasi – eshigi yopib qo'yilgan omborga o'xsharkan. Ombor oldidan har kun o'tasiz. O'tasiz-u o'z yumushingiz bilan ovora bo'lib, qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib, tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo'ralab qaraysiz. Shunda qiziq holat ro'y beradi. Ombor ichida oltindan aziz narsa ham, ko'zingiz tushishi bilan ta'bingizni xira qiladigan taqir-tuqurlar ham qalashib yotgan bo'ladi. Alam qiladigan joyi shundaki, siz ulardan xohlaganingizni ajratib ololmaysiz. Bunisi kerakli, bunisining keragi yo'q, deb birini olib, ikkinchisini uloqtirib tashlash qo'lingizdan kelmaydi. Hammasi baravariga jon ato qilib, atrofingizni qurshab oladi;



Bo‘yi yetgan qizning orzusi osmondagi yulduzga o‘xshaydi. Uzoqdan yaraqlab ko‘rinadi-yu, na yetasan, na tutasan. Yulduz esa olisda sirli-sirli miltirab turaveradi. Talpinasan, hech kimga bildirmay xayol surasan. Yulduzing yoningga tushishini orziqib kutasan. Kim bilsin, “yulduzi yulduziga to‘g‘ri kepti”, degan gap balki shundan chiqqandir;

“Mo‘min-qobil” bo‘lish nima o‘zi? Birov o‘ng yuzingga ursa, chap yuzingni tutib ber, deganimi?! Dushman bitta mina otib, o‘n bitta o‘zbekni qiyma-qiyma qilsin, bomba tashlab, dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qo‘ysin-da, men qo‘yday yuvosh, musichadek beozor bo‘lib turaveraymi! Yo‘q! Qonga – qon! Jonga – jon! Insof degani shu!

Roman muhim xulosaga yetaklaydi:

- dunyo o‘tkinchi, inson esa o‘z umrida ezgulik yaratishi kerak;
- xiyonat yashirilmaydi, halollik esa baribir tiklanadi;
- urush hech bir xalqni baxtga eltmaydi;
- insonning eng katta tayanchi-umid va mehrdir.

Xulosa

“Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyotida urush mavzusini insoniylik, vijdon, ruhiy kechinmalar bilan uyg‘un holda yoritgan eng yuksak asarlardan biridir. Roman o‘quvchidan faqat o‘qishni emas, balki fikrlashni, taqdirlar haqida mulohaza yuritishni, tinch hayotning qadriga yetishni talab qiladi. O‘tkir Hoshimovning badiiy mahorati tufayli asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotshunoslikka doir maqolalar va O‘tkir Hoshimov ijodi bo‘yicha tahliliy manbalar.
2. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
3. Hoshimov O‘. Asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. O‘zbek adabiyoti va san’ati ensiklopediyasi. – Toshkent.
5. Ijtimoiy tarmoqlar: ziyo.uz